

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13924671>

AHOLI YASHASH JOYLARIDA ISTIROHAT BOG'LARINI TASHKIL ETISH UCHUN YER TUZISH LOYIHALARINI ISHLAB CHIQISH

Aliqulov G'olib Nartoshevich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti
asilbek2022@rambler.ru

Xolov Nizomjon Muhiddinovich

“O‘zdavyerloyiha” DILI mustaqil izlanuvchi doktoranti
kholov.nizomjon@bk.ru

Nortoshov Asilbek G'olib o‘g‘li

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti talabasi
asilbekn512@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada istirohat bog‘larini tashkil etish bo‘yicha chora tadbirlar, muommolar va takliflar atroflichcha tahili qilingan.

Kalit so‘zlar: yer fondi toifasi, yer fondi toifasini o‘zgartirish, yer tuzish loyihasi.

Аннотация: В статье подробно анализируются мероприятия, проблемы и предложения по организации парков отдыха.

Ключевые слова: категория земельного фонда, изменение категории земельного фонда, проект освоения земель.

Abstract: The article analyzes in detail the activities, problems and proposals for organizing recreation parks

Keywords: land fund category, land fund category change, land development project.

Kirish.

Yangi O‘zbekiston dunyoga yuz tutmoqda. Dunyo - O‘zbekistonni e’tirof etmoqda. Buning zamirida so‘nggi yillarda mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan olib borilayotgan inson qadri uchun tamoiyli muhim rol o‘ynamoqda desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Kundan-kunga xalqimizning siyosiy qarashlarida va ma’naviyatida bo‘ladigan o‘zgarish hamda xalqimizning urfodatlarini tiklashga, ayni paytda ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitishga ustuvorlik berildi.

Bugun insoniyat global isish, iqlim o‘zgarishi kabi qator ekologik tahidillar bilan to‘qnash kelmoqda. Ushbu havfli tahididlarni kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta’minlovchi tizimlardan biri aholi yashash hududlarida istirohat bog‘larini tashkil etish orqali masalaga yechim topish imkoniyati paydo bo‘ladi. Shu sababli ham ushbu mavzu dolzar bo‘lib hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti va uslublari. Tadqiqot obekti sifatida Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani Agrofirma massivi “Chaman” MFY hududidan 213,214,215,216,217,218,219-konturlaridagi jami: 38 hektar yer maydoni tanlab olindi. Maqolada geostatistik tahlillar qilish, obyektlarni geofazoviy bog‘lash, kartografik, masofadan zondlash, algoritmlash kabi usullardan foydalanilgan.

3. Natijalar va munozaralar.

Inson paydo bo‘libdiki, u doimo tabiat, tabiiy muhit bilan o‘zaro mushtaraklikda yashaydi, faoliyat yuritadi. Inson hayoti davomida uning butun borlig‘ida tabiiy-biologik va ijtimoiy ruhiy nisbati ko‘rinishida ham namoyon bo‘ladi. Inson tabiatning uzviy bir bo‘lagi bo‘lib hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2018 yil 26 aprel kuni “Obod qishloq” dasturiga muvofiq qishloqlarni obodonlashtirish ishlarini sifatli tashkil etish va jadallashtirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida davlat rahbari “xarob va fayzi yo‘q joyda yashayotgan aholining kayfiyati ham, kelajakka intilishi ham bo‘lmaydi. Ikkinci tomondan, ular ham fuqarolarimiz, nima uchun ular sharoit yo‘q joyda yashashi kerak? Biz qishloqlarni obod qilsak, u yerdagi xalqning kayfiyati o‘zgaradi, ularda o‘z hayotini yanada yaxshilashga intilish paydo bo‘ladi, qishloqlar iqtisodiy o‘sadi. Buning natijasida Vatanimiz obod bo‘ladi va mamlakatimizning iqtisodiy yuksalishi uchun yana bir muhim turtki bo‘ladi” deb taqidlagan edi. Shu sababli ham respublikamizning har bir hududida juda ko‘p o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa hududlarda aholi yashash uylarini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Binolar joylashgan hududlardan kam bo‘lмаган miqdorda yashillik, istirohat bog‘lari, sayilgohlar bo‘lishi shart. Aks holda ekologik balans


yo‘qoladi, bu tabiatning «jahlini chiqaradi». Jahli chiqqan tabiat esa insoniyatga aytaylik qurg‘oqchilik bilan «hujum qilishi mumkin». Shu sababli Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani Agrofirma massivi “Chaman” MFY hududidan “Yangi O‘zbekiston” istirohat bog‘ini tashkil etish bo‘yicha yer tuzish loyihibalarini amalga oshirdik.

Tajriba tahlil o‘tkazilgan hududning hududining iqlimi o‘zgaruvchan bo‘lib, katta suv havzalaridan uzoqligi – quruq va issiq yoz va sovuq – qish bilan hamda yog‘ingarchilikning yil davomida bir tekis tushmasligi bilan ajralib turadi. Eng sovuq kunlar yanvar, fevral oylarda kuzatilib, o‘rtacha havo harorati – 2,6–6,2⁰S ni tashkil etsa, eng past harorat esa -29,0-30,0⁰S va eng yuqori harorat +41,0–43,0⁰S iyun–iyul oylarida kuzatiladi. Dastlabki qor yog‘ishi dekabr boshlarida kuzatiladi. Yog‘ingarchilik, asosan aprel va may oylarida ko‘p bo‘lib, bu davrlarda yillik yog‘inlar miqdorining 60-65 foizi tushadi. Yil davomida 177–252 mm gacha yog‘ingarchilik bo‘lishi kuzatiladi.

Tuproq sharoiti. Viloyat hududi uch xil morfologik guruhgaga, ya’ni adirlar (dengiz sathidan 1500 metr balandlikda), dasht va cho‘l hududlariga bo‘linadi. Tuproqlari och bo‘z tuproq, qumoq tuproq turlariga bo‘linadi. Tuproq tarkibida gumus miqdori 1,3- 1,8 %, yalpi azot –0,18-0,22 %, fosfor –0,14-0,18 % va kaliy –3,4- 6,2 % gacha o‘zgarib turadi. Ushbu hududdagi och tusli tuproqlar kuchsiz ishqoriy reaksiyaga (pH=7,2–7,4) ega, singdirish sig‘imi 100 g tuproqda 25-28 mg.ekv bo‘lib, almashinib yutiladigan kationlar yig‘indisini (5-8 %) kaliy hamda natriy tashkil etadi. Tuproqning pastki qatlamlarida (1,5-2 m) gips qatlami mavjud

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 21-22-aprel kunlari Qashqadaryo viloyatiga tashrifi davomida va Xalq deputatlari viloyat kengashining navbatdan tashqari sessiyasida bergan topshiriqlari bo‘yicha 35-soni yig‘ilish bayonining 13-bandida “Qarshi-Shahrisabz” avtomobil yo‘li bo‘yicha bosh reja konsepsiya loyihasini ishlab chiqish hamda mazkur topshiriq ijrosini ta’minalash maqsadida Qarshi tumani Chaman MFY hududidan 38 hektar maydonda “Yangi O‘zbekiston bog‘i” majmuasini barpo etish ishlari amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihani amalga oshirish uchun Chaman MFY hududidan 213,214,215,216,217,218,219-konturlaridagi jami: 38 hektar yer maydoni tanlab olindi (1-rasm).

**Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani «Agrofirma» massivi hududidan "Yangi O'zbekiston bog'i barpo etish" uchun tanlangan yer maydoni
LOYIHA XARITASI**



1-расм. Tanlangan yer maydonini loyiha xaritasi

Loyihalanayotgan hududning Google Earth xaritasidan olingan yer maydonini 2-rasmda ko'rishimiz mumkin.

2-rasm. Google Earth xaritasidan olingan yer maydoni rasmi



1-jadval.

Loyihalanayotgan hududning konturlar bo'yicha qaydnomasi.

T/r	Hudud nomi	Yerdan foydalanuvchi nomi	Kontur raqami	Jami yer maydoni, ga	Shundan		Tuproq ball boniteti
					sugoriladigan yerlar, ga	boshqa yerlar, ga	
1.	Agrofirma massivi	Tuman hokimligi zahirasidagi yerlar	213	0,50		0,50	
			214	9,01	9,01		49,7
			215	0,40		0,40	
			216	1,70	1,70		49,7
			217	18,10	18,10		49,7
			218	4,99	4,99		49,7
			219	3,30	3,30		49,7
			7	38,0	37,10	0,90	49,7

Joylashtirilishi mo'ljallangan Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani Agrofirma massivi "Chaman" MFY xududidan "Yangi O'zbekiston" bog'i barpo qilish loyihasini tashkil etish uchun obyektining jami 38,0 hektar yer maydoni bo'lib, shundan; 32,11 hektar suvli, 4,99 hektar ko'p yillik daraxtzorlar, 0,90 hektar boshqa yerlarni maydoni kelajakda foydalanish maksadiga ko'ra qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan (yoki o'rmon

fondi) yerlari toifasidan yer fondining sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar toifasiga o‘zgartirish belgilandi.

Tanlangan yer maydonida dam olish va hordiq chiqarish, sport bilan shug‘ullanish joylari va yo‘laklar, amfiteatr, suniiy ko‘l havzasi, avtoturargohlar hamda mavzuli hududlar, shu jumladan kashtan, eman, chinor, lola va nastarin bog‘lari, noyob manzarali va qimmatbaho daraxtlar, butalar va gullardan iborat dam olish maskanlari barpo etish rejalashtirilgan(3-rasm).

“Yangi O‘zbekiston” bog‘i sxemasi



3-rasm. “Yangi O‘zbekiston” bog‘ini tashkil etish loyihasi.

Xulosa, taklif va tavsiyalar: Xulosa qilib aytganda, istirohat bog‘larini tashkil etish, aholi punktlarini ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish tadbirlarini amalga oshirib biz nafaqat atrof muxitni ifloslanishini oldini olamiz balki biologik xilmayillik saqlash, cho‘llanishni oldini olishga va kelajak avlodlarning xam salomatligiga zamin yaratamiz.Respublikamizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar asosan xalqimiz turmush darajasini yaxshilashga, farovonligini oshirishga qaratilgandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1) Мадиева Р. Глобал исиш жадал давом этмоқда ва унинг сабаби шубҳасиз — инсон.//Янги Ўзбекистон, 2021 йил 10 август
- 2) Aliqulov, G. N. , Aralov, M. M., Nortoshov, A. G., (2023). Qishloq xo'jaligi xaritalarini yangilashda masofadan zondlash materiallaridan foydalanish. Research and education, 2(3), 49–56. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/re/article/view/2669>
- 3) F. Н. Алиқулов, А. & F. Норташев. (2024). Соғломлаштириш ва рекреация мақсадларига мўлжалланган ерлардан фойдаланишда таъсир этувчи омиллар ва уларни ечимлари. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13843986>
- 4) А.Х.Ҳамзаев, С.К.Кожахметов Б.Эшонқулов, Н.Мухсимов, Б.Мамутов,Х.Юлдашев. Яшил макон умуммиллий лойиҳаси. доирасида республика ҳудудларида дараҳтбута кўчатларини экиш бўйича тавсиялар.Тошкент-2022 йил 96 бет.
- 5) <https://kun.uz/kr/news/2021/07/20/shahardagi-eng-asosiy-joy-istirohat-boglari-qanday-korinishda-bolishi-kerak#>
- 6) Алиқулов, F., & Аралов, М. (2022). РЕЛЬЕФНИНГ РАҚАМЛИ МОДЕЛЛАРИНИ УЧУВЧИСИЗ УЧИШ АППАРАТЛАРИ ЁРДАМИДА ЯРАТИШ. Innovatsion Texnologiyalar, 1(4), 131–134. Retrieved from <https://ojs.qmii.uz/index.php/it/article/view/127>
- 7) Алиқулов, F., & Аралов, М. (2021). GNSS ДАН ФОЙДАЛАНИБ ҚАРШИ ШАҲАР ҲУДУДИ ГЕОДЕЗИК ТАРМОФИ КООРДИНАТАЛАРИНИ ЎЛЧАШ. Innovatsion Texnologiyalar, 2(42), 25-28.
- 8) GN Aliqulov, MM Aralov. Masofadan zondlash ma'lumotlari yordamida irrigatsiya tarmoqlari kartasini tuzish. RESEARCH AND EDUCATION 2 (10), 173-180.
- 9) Aliqulov, G., & Eshonkulov, R. (2021). The Effect Of Soil-Climate On The Drain Productivity Of Peas Grown In Dryland. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 03(01), 82–91.
- 10) <https://kun.uz/news/2023/09/15/ozbekiston-suv-tejovchite-xnologiyalarni-joriy-qilish-boyicha-osiyoda-tortinchi-orinda-bormoqda>